

## “NA’MATAK MEVASI” BIOLOGIK FAOL QO’SHIMCHALARINING TAHLILI

**Mualliflar:** Ilmiy tadqiqodchi Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti, Klinik farmatsiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi Hikmatova Shukrona Ismat qizi

Ilmiy tadqiqodchi Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti, Klinik farmatsiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

**Abdiravidov Temurbek Abdumannonovich**

Ilmiy rahbar Toshkent farmatsevtika instituti Farmakognoziya kafedrasи mudiri, dotsent Farmonova Nodira

**Dolzarbligi:** Shifokorlar shamollahning oldini olish va davolash uchun tavsija etishadigan na’matak mevalarining damlamasi — askorbin kislotasi yoxud vitamin C’ning tabiiy manbai sanaladi. Organizmning himoya kuchlarini mushtahkamlaydi va kuchaytiradi, qon tomirlarini mustahkamlaydi, yurak ishini barqarorlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi va hazm qilish tizimini me’yorga keltiradi. Agar ushbu damlama muntazam ravishda qabul qilib boriladigan bo’lsa, unda shamollahdan saqlanish, shifo jarayonini tezlashtirish va kasallikdan keyin tezroq tiklanish mumkin bo’ladi. Homiladorlik paytida na’matak alohida ahamiyatga ega. Na’matak damlamasi bo’lajak onalarga toksikoz xurujlarini yengishga, qizil qon tanachalarini yoxud eritrositlar shakllantirishni rag’batlantirishga va kamqonlik rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, u bir qator foydali mikroelementlar, shu jumladan kaliy, magniy, kaltsiy va natriyni o’z ichiga oladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** O’zbekistonda ishlab chiqarilayotgan na’matak asosidagi biologik faol qo’shimchalar tarkibidagi na’matak mevalarini makroskopik va mikroskopik tahlil qilish.

**Usul va uslublari:** Tadqiqot uchun “Green Health Center” va “Mirzo Davlat” MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan “Na’matak mevasi” biologic

faol qo'shimchalari (sashe-paket) olindi. Ushbu biologic faol qo'shimchalarining tarkiblari 1-jadvalda keltirilgan. Biologik faol qo'shimchalar tarkibidagi na'matak mevalari kukunini makroskopik va mikroskopik tahlili UzR DF talablariga asoslangan holda olib borildi. Buning uchun sashe paketlar ichidagi xom ashyo tekis karton ustiga yoyildi va 10 marta katta qilib ko'rsatadigan lupa yordamida taxlil qilindi. Mikroskopik tahlil o'tkazish uchun sashe paket ichidagi xom ashyo buyum oynasiga joylashtirildi, flyuroglyutsin va 1% xlorid kislota eritmasi tomizildi hamda Motic B1-220A-3 mikroskop ostida ko'rildi.

### 1-jadval

#### **O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan na'matak asosidagi biologic faol qo'shimchalar tarkibi**

MCHJ "Green Health Center"	MCHJ "Mirzo Davlat"
Na'matak mevasi 30%	
Tut mevasi 30%	
Quruq o'rik mevasi 20%	Na'matak kukuni $2.5\text{gr} \times 20 = 50\text{gr}$
Do'lana mevasi 10%	
Limon po'stlog'I 10%	
Faol moddalar: saxaroza, dekstrin, kraxmal, taninlar, aminokislotalar.	

**Natijalar:** Olib borilayotgan tahlil natijasida ikkala biologic faol qo'shimchalar tarkibidagi na'matak mevalari makro va mikroskopik bo'yicha tegishli moyoriy hujjatlarga mos ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga MCHJ "Green Health Center" tomonidan ishlab chiqarilgan biologik faol qo'shimcha tarkibidagi na'matak mevasi elementlari kam ekanligi topildi. MCHJ "Mirzo Davlat" tomonidan ishlab chiqarilgan BFQ esa makro va mikroskopik belgilari bo'yicha talablarga javob berdi, lekin uning qadog'idagi bazi kamchiliklar aniqlandi (qo'llash to'g'risidagi ma'lumotlari yo'q).

**Xulosa:** Ilk bora O'zbekistonda ishlab chiqarilgan na'matak asosidagi BFQ taxlil qilindi. Olib borilayotgan izlanishlar tekshirilayotgan obyektni chinligi va sifatini baxolashda tavsiya etiladi.